



QADIMGI SIVILIZATSIYALARDA QULLIKNING O'RNI HAQIDA

Burxonova E'zoza Farxod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 3- bosqich talabasi,

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. *Qullik insoniyat tarixidagi eng qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlardan biri bo'lib, unda odamlar erkinlikdan mahrum etilib, mulk sifatida ishlatilgan. Maqolada qullikning Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim kabi sivilizatsiyalarda paydo bo'lishi, sabablari (urushlar, qarzlar, iqtisodiy ehtiyojlar) va oqibatlari yoritiladi. Qullik jamiyatning mehnat kuchi va qudratini ta'minlagan bo'lsa -da, inson huquqlarini cheklab, tengsizlikni kuchaytirgan. Matnda Tavrot va arxeologik dalillarga asoslangan Misrdagi somiylarning qulligi, Rimdagi qullarning millionlab soni, ularning turli sohalarda ishlatilishi va Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon kabi misollar keltirilgan. Vaqt o'tishi bilan qullikning unumsizligi, qo'zg'olonlar va ijtimoiy o'zgarishlar tufayli tizim yemirilgan. Zamonaviy jamiyatlarda qullikning har qanday shakli rad etilib, inson erkinligi va tengligi qadrlanadi. Matn qullikni adolatsiz va vayronkor tizim sifatida ta'kidlab, uning o'rganilishi orqali jamiyatlarning erkinlikka asoslanganligini eslatadi.*

Kalit so'zlar: *qullik, Misr, Rim, Mesopotamiya, Shumer, Gretsiya, Tavrot, somiy, kulbali qullar, gladiatorlar, Spartak qo'zg'oloni, Vezuviy tog'i.*

АННОТАЦИЯ. *Рабство — одна из древнейших социально-экономических систем в истории человечества, при которой люди лишались свободы и использовались как имущество. В тексте освещается появление рабства в таких цивилизациях, как Месопотамия, Древний Египет, Греция и Рим, его причины (войны, долги, экономические потребности) и последствия. Хотя рабство обеспечивало общество рабочей силой и мощью, оно ограничивало права человека и усиливало неравенство. В тексте приводятся примеры: порабощение семитов в Египте (на основе Торы и археологических данных), миллионы рабов в Риме, их использование в самых разных сферах, а также восстание под предводительством Спартака. Со временем система рухнула из-за неэффективности рабского труда, многочисленных восстаний рабов и социальных изменений. В современных обществах любая форма рабства отвергается, а свобода и равенство человека высоко ценятся. Текст подчёркивает, что рабство было несправедливой и разрушительной системой и изучение его истории напоминает нам о том, что общества должны строиться на принципах свободы.*

Ключевые слова: *рабство, Египет, Рим, Месопотамия, Шумер, Греция, Тора, семитские языки, закованные в кандалы рабы, гладиаторы, восстание Спартака, Везувий.*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ANNOTATION. *Slavery is one of the oldest socio-economic systems in human history, in which people were deprived of freedom and used as property. The text covers the emergence of slavery in civilizations such as Mesopotamia, Ancient Egypt, Greece, and Rome, its causes (wars, debts, economic needs), and its consequences. Although slavery provided society with labor force and power, it restricted human rights and intensified inequality. The text cites examples such as the enslavement of Semites in Egypt based on the Torah and archaeological evidence, the millions of slaves in Rome, their employment in various sectors, and the revolt led by Spartacus. Over time, the system collapsed due to the inefficiency of slavery, slave uprisings, and social changes. In modern societies, any form of slavery is rejected, and human freedom and equality are valued. The text emphasizes slavery as an unjust and destructive system and reminds us, through its study, that societies should be founded on freedom.*

Keywords: *slavery, Egypt, Rome, Mesopotamia, Sumer, Greece, Torah, Semitic, shackled slaves, gladiators, Spartacus uprising, Mount Vesuvius.*

Qullik insoniyat tarixida eng qadimgi ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalaridan biri hisoblanadi. Qullik tizimi asosida odamlar o'z erkinligini yo'qotib, boshqa shaxslar yoki davlat mulki sifatida ishlatilgan. Qullik ko'plab qadimgi sivilizatsiyalarda, jumladan Mesopotamiya, Misr, Rim va Gretsiyada keng tarqalgan. Qullikning asosiy sabablari iqtisodiy va ijtimoiy bo'lgan. Qishloq xo'jaligi va savdo rivojlanmagan davrlarda, ko'p ishlarni bajarish uchun odamlar majburan qullikka tortilgan. Shu bilan birga, urushlar va bosqinlar natijasida mag'lub bo'lgan xalqlar qullikka olinardi. Qullik tizimi odamlarni nafaqat mehnat qilishga majbur qilgan, balki ularning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy erkinliklarini ham cheklagan. Qullikdan farqli o'laroq, zamonaviy jamiyatlarda inson huquqlari, erkinlik va tenglik qadrlanadi. Tarix davomida qulchilikga qarshi kurashlar ham bo'lgan.

XVIII-XIX-asrlarda Yevropa va Amerika qit'alarida qullik rasmiy ravishda bekor qilindi, biroq ba'zi hududlarda u yashirin yoki muqobil shakllarda davom etgan. Bugungi kunda qullik ko'rinishidagi mehnat ekspluatatsiyasi, odam savdosi va majburiy mehnat muammolari xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinadi va ular bilan kurashish choralari ko'riladi. Qullik — ekspluatatsiyaning tarixan dastlabki va eng qo'pol shakli, unda qul ishlab chiqarish qurollari qatorida, o'z xo'jayini quldorning mulki hisoblangan. Quldorlik tuzumiga asos bo'lgan. Qullikning manbai: urush yoki qaroqchilik paytida asir olingan begona qabila a'zolari, jinoyat qilgan yoki qarzlarni to'lay olmagan qabiladoshlar, shuningdek, qullarning tabiiy ko'payishi, qullar savdosi va boshqa Quldorlar jabr-zulmi qullarning yirik qo'zg'olonlariga sabab bo'lgan[4. 593-b.].

Quldorlik jamiyati - insoniyat tarixida ibtidoiy jamiyat o'rniga kelgan tuzim. Quldorlik jamiyatida quldorlar va qullar bilan ayni paytda erkin dehqonlar, hunarmandlar va boshqa ijtimoiy guruhlar ham mavjud bo'lgan. Eng qadimgi quldorlik davlatlari Misr, Shumer miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri, miloddan avvalgi III ming yillik boshida vujudga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



kelgan. Quldorlik jamiyati Yunonistonda miloddan avvalgi V-IV asrlarda va Qadimgi Rimda miloddan avvalgi II asr, milodiy II asr yuksak darajada rivojlangan. Davr o'tishi bilan bu jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga to'siq bo'la boshlagan. Qullar qo'zg'olonlari quldorlikning yemirilishini tezlashtirgan. Qadimgi Misrda qullik iqlim, dehqonchilik va piramidalar qurilishi bilan bog'liq ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan. Qullar ko'pincha urushlardan olib kelingan mahbuslar yoki iqtisodiy qarzga botgan odamlar bo'lgan. Firavnlr va boylar qullarni o'z mulklari sifatida ishlatgan, ular qishloq xo'jaligi, qurilish va maishiy ishlarni bajarishgan. Misr qullari ba'zan erkinlikni qisman saqlashgan, masalan, yerda ishlash evaziga o'z oilasini boqish huquqiga ega bo'lishgan. Shumer va Misrda qullik jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tizimining ajralmas qismi bo'lgan. Ular orqali davlat va boy sinflar o'z qudratini mustahkamlashgan, ammo inson huquqlarining cheklanishiga olib kelgan. Qullik haqida bir qancha Diniy kitoblarda aytilgan ma'lumotlar bor.

Tavrot bayonotiga ko'ra, midiyaliklar Yusufni Misrga olib ketishganidan keyin, Yoqub va uning oilasi Kan'ondan Misrga ko'chib o'tgan. Ular Misrning Go'shen degan yerida, Nil deltasida o'rnashishgan, Isroilliklar misrliklarga qaraganda «ko'proq va kuchliroq» bo'lib ketishgan. Shunda misrliklar ulardan qo'rqib, ularni qullarga aylantirishgan. Ayrim zamonaviy tanqidchilar Tavrotdagi mazkur bayonotni uydirma deb atab, kulgiga chiqarishgan. Biroq somiyalar qadimgi Misrda qul bo'lib yashaganini isbotlovchi dalillar mavjud. Misol uchun, arxeologlar Misr shimolida qadimiy manzilgohlarning qoldiqlarini topishgan. Doktor Jon Bimsonning hisobotiga ko'ra, Misr shimolida somiyalarning 20 yoki undan oshiq manzilgohlari bo'lgan[1. 13-15-b.].

Bundan tashqari, misrshunos, arxeolog Jeyms Xoffmayyer shunday dedi: «Taxminan mil. avv. 1800-yildan to 1540-yilgacha Misr G'arbiy Osiyodagi somiyzabon xalqlar ko'chishi uchun eng maqbul joy bo'lgan». O'rta podsholik davriga mil. avv. 2000–1600-yillar mansub bir papirusda Misr janubidagi bir xonadonda ishlagan qullarning ismlari yozilgan. Ismlarning 40 dan oshig'i somiycha bo'lib, ushbu qullar oshpaz, to'quvchi va ishchilar bo'lgan. Xoffmayyerning kuzatuvlariga ko'ra, «qirqdan oshiq somiyalar Fivadagi, Misr janubi xonadonlarning birida ishlagan bo'lsa, ularning soni butun Misrda, xususan Nil deltasida juda katta bo'lgan bo'lishi mumkin». Qullik barcha davlatlarda umuman qadrlanmagan va oddiy buyum sifatida qaralgan[5]. Qullar oddiy va juda kambag'al hayot kechirganlar, chunki boylar va kambag'allar o'rtasidagi tavofut juda katta edi. Zodagonlar mehnatkash xalqni azoblardi va ijtimoiy tizim qattiq mehnat ustiga qurilgan edi.

Dastlabki qullik shakllari Shumer va Qadimgi Misrda shakllangan bo'lsa, keyinchalik bu tizim yanada rivojlanib, eng mukammal va keng ko'lamli ko'rinishga Qadimgi Rim imperiyasi davrida ega bo'ldi. Mesopotamiya va Misrda qishloq xo'jaligi, qurilish va davlat ishlarida qullar ishlatilgan bo'lsa, Rimda qullik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimning markaziga aylandi. Qadimgi Rimda qullar jamiyatning eng asosiy mehnat kuchi bo'lgan. Ular urushlardan olib kelingan asirlar, qarzdorlar yoki savdo yo'llari orqali sotib olingan odamlar edi. Rim imperiyasi o'z hududini kengaytirgan sari, asirlarning soni ortdi va qullar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



soni millionlab bo'ldi. Rimdagi qullikning o'ziga xos jihatlari haqida aytadigan bo'lsak, qullar jamiyatning barcha sohalarida ishlatilgan, qishloq xo'jaligi, konlar, uy xizmatlari, hammomlar, qurilish, davlat ishxonalari, ba'zi qullar hatto o'qituvchi, shifokor, kotib, oshpaz sifatida ham ishlagan chunki Rim ko'plab xalq va madaniyat vakillarini asirga olgan.

Qullar mol-mulk sanalgan, biroq ba'zilar o'z mehnati evaziga ozodlik sotib olish imkoniga ega bo'lgan. Shumer va Qadimgi Misrda shakllangan dastlabki qullik tizimi vaqt o'tishi bilan yanada kuchayib, eng murakkab va keng ko'lamli ko'rinishga Qadimgi Rim imperiyasida erishdi. Agar Shumer va Misrda qullik asosan iqtisodiy ehtiyojlar qishloq xo'jaligi va qurilish ishlari bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, Rimda u jamiyat tuzilmasining asosiy tayanchi darajasiga ko'tarildi. Qullar millionlab sonni tashkil etib, barcha sohalarda ishlatilgan va imperiyaning siyosiy hamda iqtisodiy qudratini ta'minlagan. Shu bois, qulchilikning rivojlanish yo'li insoniyat tarixida davlatlarning shakllanishi, urushlar, iqtisodiy tizimlarning o'sishi va ijtimoiy tabaqalanish bilan uzviy bog'liq bo'lganini ko'rsatadi[3.5-7-b.].

Zafarli yurishlar natijasida Rimda qullar soni nihoyatda ko'payib ketdi. Erkin rimliklar tasavvuricha, qul butunlay quldorning ixtiyorida bo'lgan bir buyumdek edi. Qullarning qadri bo'lmagan, chunki ular judayam arzon turardi. Rim davlatidagi qullarda mehnatdan manfaatdorlik hissi mutlaqo bo'lmagan. Ularga haq to'lanmas edi. Shuning uchun qullar mumkin qadar kamroq va yomonroq ishlardi. Bora-bora qullar mehnati unumdorligi kamayib ketdi. Qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi ma'lum bo'ldi. Ko'plab quldorlar qullarni yer ijarachilariga aylantira boshladi.

Qullar qo'zg'olonidan qo'rqqan, hosildorlikni oshirishga intilgan zamindorlar o'z yerlarini kichik-kichik mulklarga bo'lib tashladi va erkin kambag'allarga ijaraga tarqatib bera boshladi. Ana shu yerlarda ijarachilar dehqonchilik bilan shug'ullandi. Ular yerga qancha yaxshi ishlov bersa, hosilning shuncha ko'p ulushi o'zlariga nasib etardi. Mayda yer ijarachilari kolonlar deb atalgan. Yerdan foydalanganlik uchun ular yer egasiga o'zlari yetishtirgan mahsulotlar bilan to'lov berishardi. Bora-bora mutlaq qaram qullarning soni kamaydi[5]. Ayrim yer egalari qullarga kichik yerlarni mehnat qurollari, urug'lik bilan birga berishar va bu yerlarda hatto oila qurib yashash ham mumkin edi. Bunday qullar "kulbali qullar", ya'ni uy-joyli qullar deb nomlangan.

Rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri gladiatorlar jangi bo'lgan. Aksariyat gladiatorlar qullar yoki jinoyatchilar bo'lishgan. Ularga maxsus yopiq maktablarda ta'lim berilar, so'ng tomoshabinlar ko'nglini xushlash uchun bir-birlari bilan olishishga majbur qilinardi. Ba'zida gladiatorlar katta-katta guruhlarga bo'linib jang qilishgan, shunda sahna jang maydoniga o'xshab qolardi: o'ldirilgan, yaralangan va jon berayotgan gladiatorlar hamma yoqda yaranib yotishardi. Yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun gladiatorlar janglari kuchi teng raqiblar o'rtasida o'tkazilgan. Biri faqat qilich va qalqon bilan, boshqasi esa to'r va changak uch ayrili nayza bilan qurollangan. To'r va changak bilan qurollangan gladiator o'zini hech narsa bilan himoya qila olmasa ham, u raqibini to'r bilan o'rab tashlashi va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



changak bilan o'ldirishi mumkin edi. Gladiatorialarning yovvoyi arslonlar, qoplonlar, darg'azab ho'kizlar bilan olishuvlari ham o'tkazilgan.

Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortgani uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan frakiyalik qul Spartak qullarni qo'zg'olon ko'tarishga undadi. Mil. avv. 74-yilda boshlangan Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo'zg'olonlardan biri bo'ldi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdorlari qorovullarga hujum qiladi va qochib chiqib ketadi. Ular Vezuviy tog'idagi qoyaga chiqib oladi. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo'shila boshlashi natijasida qo'zg'olon ko'targanlar safi kengaya bordi. Ko'p o'tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi [2. 315-316-b.].

Qo'zg'olon ko'targan qullarni tor-mor etishga jo'natilgan uch ming kishilik qo'shin Vezuviy tog'lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshlandi. Spartak kutilmaganda dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to'qib, ko'rinmaydigan tarafdand cho'qqidan pastga tushib oladi. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergan Spartak ularni tor-mor etdi. Ammo ko'p o'tmay qo'zg'olon ko'targanlar orasida ixtilof paydo bo'ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o'z yurtlariga qaytishni afzal bildi. Ko'pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldorlardan qasos olishga ahd qilishdi.

Xulosa qilib aytganda, qullik odamni shaxs sifatida emas, balki jamiyatdagi oddiy mulk sifatida ko'rgan, uning erkinligi, huquqi va qadr-qimmatini yo'qqa chiqargan. Bu tizim jamiyatlarning iqtisodiy qudratini oshirgan bo'lishi mumkin, ammo insoniylikni vayron qilgan, tengsizlikni chuqurlashtirgan va adolatsizlikni normal holga aylantirgan. Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, qullikka asoslangan har qanday tizim qo'zg'olonlar, noroziliklar va axloqiy tanazzulga olib kelgan, Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon bunga yaqqol misol bo'la oladi. Zamonaviy inson huquqlari tamoyillari esa qullikning har qanday shaklini qat'iy rad etadi. Demak, qullik insonning eng oliy qadriyati bo'lgan erkinlikka qarshi bo'lgan, jamiyatni zulm va tengsizlikka olib kelgan tizim sifatida tarixda salbiy iz qoldirdi. Uni o'rganish bizga bir narsani aniq ko'rsatadi-ki hech bir jamiyat boshqa odamning qulligi evaziga qurilishi mumkin emas.

Foydalangan adabiyotlar

1. Dyankonov I. M. "Qadimgi Misrdada qullik". 1963. (rus tilidan tarjima).
2. Jahon tarixi ensiklopediyasi. 2 jild. Toshkent. 2017.
3. Xo'jayev A., Rtveladze A., Sayfiyev A. "Antik dunyo tarixi". Toshkent. 2020.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jild. Toshkent. 2005.
5. www.wikipedia.org. internet sayti

